kengash.gov.uz *III-9-46-14-206-K/25*

XALQ DEPUTATLARI YUNUSOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 21-iyun III-9-46-14-206-K/25 Yunusobod tumani

Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi huzurida ekspert guruhini tashkil qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi KQ-52-V-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi KQ-52-V-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi huzuridagi ekspert guruhi to‘g‘risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi kotibiyati mudiri S. Sobirjonovga:

o‘z vakolatiga kiradigan vazifalarni samarali amalga oshirishga ko‘maklashuvchi, fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat bo‘lgan ekspert guruhi faoliyatini jamoatchilik asosida tashkil etish;

Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi huzuridagi ekspert guruhi faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tashkiliy, uslubiy va maslahat yordami ko‘rsatish topshirilsin.

4. Mazkur Qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

5. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi ABDUVALIYEV BOXADIR ABDULXAYEVICH

Xalq deputatlari Yunusobod tumani
Kengashining
2025-yil 21-iyundagi
III-9-46-14-206-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Yunusobod tumani
Kengashining
2025-yil 21-iyundagi
III-9-46-14-206-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Yunusobod tuman Kengashi huzuridagi ekspert guruhi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom (bundan buyon matnda Nizom deb yuritiladi) Xalq deputatlari Yunusobod tuman Kengashi huzuridagi ekspert guruhi (bundan buyon matnda Ekspert guruhi deb yuritiladi) faoliyatini tartibga soladi.

2. Ekspert guruhi – Xalq deputatlari Yunusobod tuman Kengashi (bundan buyon matnda tuman Kengashi deb yuritiladi) va uning doimiy komissiyalari faoliyatini ekspertiza hamda axborot-maslahat jihatidan ta’minlash, ularning norma ijodkorligi faoliyati va nazorat-tahlil tadbirlarini tayyorlash va o‘tkazishda ko‘maklashish uchun tuzilgan, o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradigan maslahat organi hisoblanadi.

3. Ekspert guruhi tuman Kengashi qarori asosida tashkil etiladi.

4. Ekspert guruhining xulosalari tavsiyaviy xususiyatga ega.

5. Ekspert guruhi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, tuman Kengashi qarorlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

2-bob. Ekspert guruhining asosiy vazifalario huquq va majburiyatlari

6. Quyidagilar Ekspert guruhining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tuman Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritilgan masalalarni doimiy komissiyada dastlabki tarzda ko‘rib chiqishda ishtirok etish;

tuman Kengashi qarorlari loyihalarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, qonunchilik hujjatlariga, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga muvofiqligi nuqtayi nazardan o‘rganib chiqish va tavsiyalar berish;

qonunlarni ularda korrupsiyaga, gender tengligi buzilishiga yoki boshqa huquqbuzarliklarni sodir etishga sharoit yaratuvchi, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha ma’muriy yoki boshqa cheklovlarni joriy etuvchi qoidalar va normalar mavjudligi nuqtayi nazardan tahlil qilish;

tuman Kengashi va uning doimiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish va zarurat tug‘ilganda uni vakillik organlari faoliyatida qo‘llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

tuman Kengashi qarorlari loyihalarini ishlab chiqishda doimiy komissiyalarga ko‘maklashish;

tuman Kengashi va uning doimiy komissiyalariga nazorat-tahlil tadbirlarini tayyorlash va o‘tkazishda ko‘maklashish;

tuman Kengashi va uning doimiy komissiyalari hamda deputatlarning fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligini tahlil qilish, hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor eng muhim masalalar yuzasidan tuman Kengashi faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini o‘rganish va har tomonlama tahlil qilish;

tuman Kengashi deputatlari tomonidan aholi bilan o‘tkaziladigan uchrashuvlar, sayyor qabullar, tushuntirish ishlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat va hududiy dasturlar loyihalari, tadbirlar rejalari va davlat organlari faoliyatiga taalluqli (shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha) hujjatlar yuzasidan takliflar tayyorlash;

qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolat doirasida ishtirok etish;

bajarilgan ishlar samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organlari rahbarlari va xodimlarining fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq ishlarda qatnashish va ularning ijrosi ustidan monitoring olib borish;

tuman Kengashi, uning doimiy komissiyalari va deputatlari tomonidan tashkil etiladigan konferensiya, seminar va “davra suhbatlari”ni tashkil etishda ko‘maklashish va ularda ishtirok etish.

7. Ekspert guruhi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

tuman Kengashi va uning doimiy komissiyalaridan o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash va olish;

tuman Kengashi va uning doimiy komissiyalari tomonidan tashkil etiladigan majlislar va boshqa tadbirlar to‘g‘risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda belgilangan tartibga qat’iy rioya etgan holda ishtirok etish;

tuman Kengashi va uning doimiy komissiyalari ishchi guruhlari tarkibida davlat organlari va boshqa tashkilotlarga borish;

Ekspert guruhiga yuklangan vazifalar doirasida tuman Kengashiga takliflar kiritish;

tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyasi majlisida ishtirok etish va unda ko‘rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan fikr bildirish;

tuman Kengashi hamda uning doimiy komissiyalari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan davlat organlari axborotlari, statistik va boshqa materiallarni belgilangan tartibda olish;

tuman Kengashi raisining ruxsati bilan ommaviy axborot vositalarida Ekspert guruhi nomidan chiqishlar qilish.

Ekspert guruhi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

8. Ekspert guruhi o‘z faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga rioya qilishi shart:

qonunchilik hujjatlari talablariga qat’iy rioya qilish;

tuman Kengashi faoliyati bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlarida belgilangan cheklovlarga amal qilish;

tuman Kengashi yoki boshqa davlat organlarining o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmaslik;

tuman Kengashi va uning doimiy komissiyalari hamda kotibiyati faoliyatiga to‘sqinlik qilmaslik;

fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l qo‘ymaslik;

o‘z faoliyati davomida olingan axborot maxfiyligi qonun bilan cheklangan bo‘lsa, ushbu axborotning sir saqlanishiga qat’iy rioya qilish.

Ekspert guruhining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

3-bob. Ekspert guruhining tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

9. Ekspert guruhining tarkibiga rais, rais o‘rinbosari, kotib va a’zolar kiradi.

10. Ekspert guruhi a’zoligiga, qoida tariqasida, tuman Kengashi deputatlari, tuman Kengashi kotibiyati xodimlari, faxriy deputatlar, ilmiy va ta’lim muassasalarining malakali mutaxassislari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro‘-e’tiborli fuqarolar, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi.

Ekspert guruhi tarkibi, qoida tariqasida:

xalq deputatlari tuman Kengashi huzurida tashkil qilinganda – 10 kishidan oshmasligi lozim.

11. Ekspert guruhining tarkibi tuman Kengashi qarori bilan har yili tasdiqlanadi. Ekspert guruhining faoliyatiga rahbarlik tuman Kengashi raisi tomonidan, Ekspert

guruhiga mas’ul kotiblik esa tuman Kengashi kotibiyati mas’ul xodimlaridan biri tomonidan amalga oshiriladi.

12. Quyidagi holatlarda Ekspert guruhining a’zolari uning tarkibidan chiqariladi:

ular tomonidan Ekspert guruhi tarkibidan chiqish to‘g‘risida ariza berilganda;

Ekspert guruhi majlislarida muntazam ishtirok etmaganda;

mazkur Nizomda belgilangan majburiyatlar va talablarni bir necha bor buzganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

vafot etganda, shuningdek sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

13. Ekspert guruhining tasdiqlangan a’zolari haqidagi ma’lumotlar, shuningdek ularning aloqa ma’lumotlari tuman Kengashining rasmiy veb-saytida (E-Kengash elektron platformasida) e’lon qilinishi mumkin.

14. Ekspert guruhining raisi:

Ekspert guruhining faoliyatini tashkil qiladi va unga umumiy rahbarlik qiladi;

Ekspert guruhining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

Ekspert guruhining majlislarida raislik qiladi;

Ekspert guruhining ish rejasini, majlis bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

Ekspert guruhi a’zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishini muvofiqlashtiradi;

Ekspert guruhining samarali ishini ta’minlash bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

15. Ekspert guruhining raisi bo‘lmagan taqdirda, uning vakolat va majburiyatlarini rais o‘rinbosari bajaradi.

16. Ekspert guruhi raisining o‘rinbosari rais yo‘qligida Ekspert guruhining majlislariga raislik qiladi hamda guruh faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

17. Ekspert guruhining kotibi:

Ekspert guruhining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va texnik jihatdan ta’minlash masalalarini hal qiladi;

Ekspert guruhining navbatdagi majlisiga zarur materiallarning o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minlaydi;

Kun tartibiga muvofiq Ekspert guruhi majlislarini o‘tkazilishini tashkil etadi;

Majlis o‘tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro‘yxatini Ekspert guruhi raisi bilan kelishadi;

Ekspert guruhi a’zolarini va taklif etilgan shaxslarni majlis joyi, sanasi va vaqti haqida xabardor qiladi;

Ekspert guruhi tomonidan tayyorlanadigan yakuniy hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi;

Ekspert guruhi a’zolarining fikr-mulohazalari va takliflarini umumlashtiradi;

Ekspert guruhi xulosalarining ko‘rib chiqilishi natijalarini monitoring qiladi va uni majlisda ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar kiritadi;

Ekspert guruhi majlisi bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning a’zolar hamda boshqa manfaatdor shaxslarga yetkazilishini ta’minlaydi;

Ekspert guruhining faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Ekspert guruhining a’zolari majlislarda ko‘rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal etish bo‘yicha o‘z vakolatini boshqalarga o‘tkazish huquqiga ega emas.

Ekspert guruhining majlisida ishtirok etish imkoni bo‘lmagan hollarda, uning a’zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo‘yicha o‘z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunday holatda uning fikri majlisda ko‘rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Ekspert guruhining a’zolari:

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tuman Kengashi sessiyalarida, doimiy komissiyalar tomonidan tashkil etiladigan majlislarda va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

Ekspert guruhi ish rejasi loyihasiga takliflar tayyorlaydi, ularni Ekspert guruhi majlisida muhokama qilish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejasining bajarilishini ta’minlaydi;

tuman Kengashi va uning doimiy komissiyalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda hamda ularni amalga oshirishda ishtirok etadi;

Ekspert guruhi kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy va boshqa materiallar tayyorlaydi;

Ekspert guruhiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

19. Ekspert guruhi faoliyatining asosiy masalalari uning majlislarida ko‘rib chiqiladi. Ekspert guruhi majlislari ish rejasiga muvofiq, qoida tariqasida, har oyda kamida bir marta chaqiriladi. Ekspert guruhi raisi, a’zolarning uchdan bir qismidan tushgan yozma murojaat asosida, navbatdan tashqari majlisni chaqirishi mumkin. Majlislar va kun tartibidagi masalalar tuman Kengashining rasmiy veb-sayti (E-kengash elektron platformasi)da e’lon qilinishi mumkin.

20. Ekspert guruhi majlislariga davlat organlari va tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari taklif etilishi mumkin.

21. Ekspert guruhi majlisi kun tartibi loyihasi Ekspert guruhi kotibi tomonidan, rais va a’zolar takliflari asosida shakllantiriladi.

22. Ekspert guruhi majlisiga raislikni Ekspert guruhi raisi amalga oshiradi. Rais ishtirok eta olmagan hollarda majlisga raislik qilish vakolati uning o‘rinbosariga o‘tadi. Ekspert guruhi majlislarida tuman Kengashi deputatlari va kotibiyat xodimlari ishtirok etishlari mumkin.

23. Ekspert guruhi majlisi, agar unda a’zolarning kamida yarmi (kvorum) ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

24. Ekspert guruhining xulosasi, majlisda ishtirok etgan a’zolarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

25. Ekspert guruhining har bir a’zosi qabul qilinayotgan xulosalar bo‘yicha o‘z fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Bunday holatda uning fikri Ekspert guruhi majlisi bayonnomasiga majburiy tartibda ilova qilinadi.

26. Ekspert guruhi majlisida qabul qilingan xulosa bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qilgan shaxs tomonidan tasdiqlanadi va uch ish kuni muddatda tuman Kengashiga, Ekspert guruhi a’zolariga hamda manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

27. Ekspert guruhi kotibi, Ekspert guruhi a’zolari bilan hamkorlikda, qabul qilingan xulosalarning bajarilishi holatini o‘rganadi va zarur hollarda Ekspert guruhi raisiga tegishli takliflar kiritadi.

4-bob. Ekspert guruhi a’zolarini rag‘batlantirish

28. Tuman Kengashi va uning doimiy komissiyalari hamda Ekspert guruhi majlislarida doimiy ravishda ishtirok etgan, tuman Kengashi hujjatlarini ko‘rib chiqish va muhokama qilishda faol takliflar bildirgan, shuningdek:

tuman Kengashi uchun tavsiyalar va tahliliy materiallar ishlab chiqqan;

nazorat-tahlil tadbirlarini o‘tkazishda faol ishtirok etgan;

qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishda jonbozlik ko‘rsatgan Ekspert guruhi a’zolari rag‘batlantirilishi mumkin.

29. Rag‘batlantirish tuman Kengashi raisi yoki doimiy komissiyalari tashabbusi bilan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

tashakkurnoma e’lon qilish;

turli mukofotlarga tavsiya etish;

yil davomida bir martalik pul mukofoti yoki qimmatbaho sovg‘alar berish.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

30. Ekspert guruhi faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta’minlash tuman Kengashi tomonidan, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

31. Ekspert guruhi faoliyatining ushbu Nizomga va O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish tuman Kengashi raisi tomonidan amalga oshiriladi.

Korxona, muassasa va tashkilot rahbarlari Ekspert guruhi a’zolarining tuman Kengashi va uning organlari faoliyatida ishtirok etishini inobatga olib, ularni ish joyi (lavozimi) saqlangan holda ishdan ozod qilishlari shart. Bu davrda a’zoning o‘rtacha ish haqi saqlanib qolinadi.

32. Ekspert guruhi yoki tuman Kengashi raisining Ekspert guruhi faoliyati bilan bog‘liq hujjatlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin.

33. Ekspert guruhi to‘g‘risidagi Nizom va unga kiritiladigan o‘zgartishlar hamda qo‘shimchalar tuman Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Yunusobod tumani
Kengashining
2025-yil 21-iyundagi
III-9-46-14-206-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Xalq deputatlari Yunusobod tumani
Kengashining
2025-yil 21-iyundagi
III-9-46-14-206-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi huzuridagi ekspert guruhi

TARKIBI

t/r	F.I.Sh	Ma’lumoti va mutaxassisligi	Ish joyi va lavozimi
Rais			
1	Abduvaliyev Boxadir Abdulxayevich, 1968-yil, Toshkent shahri	Oliy, 1992-yil, Toshkent davlat universiteti, 1995-yil, Toshkent davlat yuridik instituti, tarixchi, huquqshunos	Yunusobod tumani hokimi, Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi raisi
Rais o‘rinbosari			
2	Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich, 1991-yil, Samarqand viloyati	Oliy, 2016-yil, Toshkent moliya instituti, iqtisodchi	Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi kotibiyati mudiri
Kotib			
3	Shavkatov Axyorjon Ravshan o‘g‘li 2002-yil, Toshkent shahri	Oliy, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, moliyachi	Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi kotibiyati bosh mutaxassisi
A’zolar			
4	Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, 1985-yil, Toshkent shahri	Oliy, 2008-yil, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (bakalavir) 2016-yil, Abu Rayxon Beruniy nomli Toshkent davlat texnika universiteti (magistir)	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi deputati

5	Xasanov Baxtiyor Vaxapovich, 1961-yil, Toshkent viloyati, Qibray tumani	Oliy, 1981-yil, Toshkent davlat pedagogika instituti, tarix va jamiyatshunoslik o‘qituvchisi, tarix fanlari doktori, professor	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi raisi, Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi deputati
6	Sadullayev Qudrat Yusubbayevich, 1973-yil, Xorazm viloyati	Oliy, 1995-yil, Toshkent davlat yuridik universiteti, 2004-yil, Butun dunyo terrorizmga qarshi kurashish akademiyasi, Vengriya (Budapesht), 2011-yil, Bosh prokuratura akademiyasi, rahbar kadrlarni qayta tayyorlash Oliy kursi, huquqshunos	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Kadrlar tayyorlash bo‘yicha bosh mutaxassisi, Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi deputati
7	Eshonxodjayev Otabek Djurayevich, 1980-yil, Toshkent shahri	Oliy, 2004-yil, Toshkent davlat tibbiyot instituti, 2007-yil, Toshkent tibbiyot akademiyasi (magistr), jarroh	Akademik V.Voxidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi davlat muassasasi direktorining birinchi o‘rinbosari, Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi deputati
8	Abdusattarova Shoira Kaxramonovna 1979-yil, Toshkent viloyati	Oliy, 2005-yil, Toshkent Pediatriya medisina instituti 2009-yil , Toshkent Pediatriya medisina instituti magi stratura (kunduzgi)	Yunusobod tumani Tibbiyot birlashmasi rahbari

9	Ashrapova Iqborxon Kutbitdinovna, 1957-yil, Toshkent shahri	Oliy, 1980-yil, O‘zbekiston milliy universiteti, 1993-yil, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, filolog, iqtisodchi	O‘zbekiston Fahriylarini ijtimoiy qo‘llab – quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi Yunusobod tumani bo‘limi raisi, Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi deputati
10	Yusupov Rovshan Abilovich 1950-yil, Toshkent shahar	Oliy, 1985-yil, Samarqand Kooperativ instituti, oliy malakali tovarshunos	Yunusobod tumanidagi “Mirzo Ulug‘bek” mahalla fuqarolari yig‘ini raisi, Xalq deputatlari Yunusobod tumani Kengashi deputati